



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari.....	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes.....	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar.....	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli.....	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi.....	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'ribojevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafuz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA DIFFERENSIYALASHTIRILGAN DARS MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHGA O'RGATISH (KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH/ RIVOJLANTIRISH) USULLARI

Adhamova Diyora Sanjar qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti,
"Maxsus pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida differentsiyalashtirilgan ta'lim yondashuvini qo'llashning ahamiyati va ijobiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, mazkur yondashuv asosida inklyuziv sinf o'quvchilarining ehtiyojlariga mos tarzda ona tili fanidan dars mashg'uloti rejasi namunasi taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, differentsiyalashtirish, dars, alohida ta'lim ehtiyoji mavjud o'quvchilar.

Abstract: This article highlights the importance and advantages of applying a differentiated teaching approach in the process of inclusive education. In addition, a sample lesson plan for the native language subject, adapted to the needs of students in an inclusive classroom, is presented.

Key words: inclusive education, differentiation, lesson, students with special educational needs.

Аннотация: В данной статье раскрываются значение и положительные стороны применения дифференцированного подхода в процессе инклюзивного обучения. Кроме того, представлено примерное планирование урока по предмету "Родной язык", адаптированное для учащихся инклюзивного класса с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дифференциация, урок, учащиеся с особыми образовательными потребностями.

KIRISH

Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Mamlakatimizda ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda, bir qator farmon va qarorlar tasdiqlanib, amaliyotda o'z natijalarini bermoqda. Shulardan biri – inklyuziv ta'lim bo'lib, u alohida yordamga ehtiyoji mavjud bo'lgan bolalar va o'smirlarni umumta'lim muassasalariga qamrab olishni ko'zda tutadi.

Ushbu ta'lim shakli ijtimoiy tenglik, adolat va ta'limning barchaga ochiqligi tamoyillariga asoslanib, diskriminatsiya holatlarini inkor etadi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan 20-moddasi "Inklyuziv ta'lim"ni joriy etishga bag'ishlangan bo'lib, bu mamlakatimizda mazkur ta'lim shaklining rivojlanishi yo'lida tashlangan eng muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi farmonlari alohida ahamiyatga ega:

2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon,



2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon,

2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon,

2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4860-sonli “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmon ham inklyuziv ta‘limni yanada rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahonda ham inklyuziv ta‘lim bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda hamda u umumta‘lim maktablarida bosqichma-bosqich joriy etilib kelinmoqda. Ayniqsa, bu yo‘nalishda Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yevropa mamlakatlari hamda Yaponiya peshqadamlik qilmoqda.

YUNESKOning 2008-yilda bo‘lib o‘tgan konferensiyasida inklyuziv ta‘lim quyidagicha ta‘riflangan:

“Inklyuziv ta‘lim – bu barcha uchun mo‘ljallangan, turli xillik, ehtiyoj va qobiliyatlarni inobatga olgan holda, o‘quvchilar va jamoaning o‘rganish ehtiyoj hamda talablarini hurmat qilgan tarzda, kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etishga qaratilgan doimiy jarayondir.”

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, “Ta‘lim hamma uchun” reja-dasturi to‘g‘risidagi Dakar deklaratsiyasi va boshqa shu kabi xalqaro huquqiy-me‘yoriy hujjatlar nogironligi bo‘lgan bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning ta‘limi hamda hayoti bilan bog‘liq barcha masalalarni o‘z ichiga oladi.

Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasida shunday deyilgan:

“Har bir bola, imkoniyati cheklangan bo‘lishidan qat‘i nazar, hech qanday ijtimoiy kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmaymasligi hamda teng imkoniyatlar asosida ta‘lim olish huquqiga ega.”

Ushbu hujjatda, shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalarni ta‘lim jarayoniga jalb etishda ularni asosiy oqimdan chetga chiqarib tashlamaslik, ularga oqilona yondashuv asosida teng sharoitda ta‘lim olish imkoniyatini yaratish zarurligi ta‘kidlanadi.

Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlantirish kun tartibida barcha insonlar hayot davomida umumqamrovli, adolatli va sifatli ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Mazkur dastur doirasida ta‘limning inklyuzivligi va dolzarbligini ta‘minlash, o‘qituvchilarning kasbiy mahorati hamda inklyuziv-metodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Yuqorida sanab o‘tilgan davlat hujjatlarini inobatga olgan holda, ushbu ta‘lim tizimini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga, inklyuziv sinflarda ularning ehtiyojlariga mos tarzda va integratsiyalashgan holda dars mashg‘ulotlarini o‘tkazishga o‘rgatish zarur. Shu maqsadda, boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun inklyuziv sinflarda differentsiyalashtirilgan darslarni tashkil etish tavsiya etiladi.

“Differentsiyatsiya” atamasi lotin tilidagi “differentia” so‘zidan olingan bo‘lib, “farq”, “tabaqa” ma‘nolarini anglatadi. Ilmiy manbalarda bu atama “tabaqalashtirish” tushunchasiga yaqin bo‘lsa-da, ta‘lim jarayonida u o‘quvchilarning turli imkoniyatlari, ehtiyojlari va shaxsiy xususiyatlariga qarab ularni guruhlarga ajratgan holda o‘qitishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, differentsiyalashtirish – bu o‘quvchilarga dars mashg‘ulotlari materialini ularning individual qobiliyatlariga moslashtirish va ta‘lim jarayonini optimallashtirishga qaratilgan yondashuvdir.

Mashhur rus psixologi L.S. Vygotskiy o‘zining “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes” asarida o‘quvchilarning ta‘lim jarayonida shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularning “yaqin rivojlanish zonasi”ga (zone of proximal development) muvofiq darslarni tashkil etish zarurligini ta‘kidlagan. Unga ko‘ra, o‘quvchilarning akademik yutuqlarga erishishi ularning individual imkoniyatlarini rag‘batlantirish va shu zona doirasida faol o‘qitish orqali amalga oshadi. Demak, darslarni ana shu yondashuv asosida rejalashtirish o‘quv jarayonida muvaffaqiyat keltiradi.

Shuningdek, J. McCarthy o‘zining “Differentiate with Personalized Learning” nomli maqolasida differensial va shaxsiylashtirilgan ta‘lim o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qiladi. Muallif o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va shaxsiy qiziqishlarini inobatga olgan holda ta‘lim jarayonini tashkil etishning afzalliklarini ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu ilmiy qarashlardan kelib chiqib, darslarni differentsiyalashtirish orqali o'quvchilarda mavzu bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish hamda akademik jihatdan o'sishini ta'minlash mumkinligi aniqlanadi.

Demak, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, differentsial ta'lim yondashuvini ta'lim jarayoniga tatbiq etish samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Ushbu yondashuvni inklyuziv ta'lim jarayonida qo'llash orqali alohida ta'lim ehtiyoji mavjud o'quvchilarning ham ta'limda yuqori natijalarga erishishlari uchun keng imkoniyat yaratiladi.

Quyida boshlang'ich inklyuziv sinf uchun mo'ljallangan differentsial ta'lim yondashuvi asosida tuzilgan dars reja namunasi taqdim etiladi. Bu uchun 3-sinf Ona tili fanini tanladik.

Fan nomi: Ona tili

Sinf: 3-sinf

Mavzu: *Ot so'z turkumi*

Dars turi: Yangi mavzuni bayon qilish

Dars metodlari: (to'ldiriladi: suhbat, savol-javob, guruhli ish, muammoli ta'lim va boshqalar)

Dars jihozlari: (taxtacha, slaydlar, tarqatma materiallar, kartochkalar, interaktiv doska)

Dars maqsadi:

- *Ta'limiy:* O'quvchilarga ot so'z turkumi haqida yangi bilim berish, so'z turkumlaridagi farqlarni anglashga o'rgatish.
- *Tarbiyaviy:* O'quvchilarda o'zaro hurmat, hamjihatlik va mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantirish.
- *Rivojlantiruvchi:* O'quvchilarning fikrlash, muloqot, kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kirish qismi

Salomlashuv. O'qituvchi o'quvchilar bilan samimiy salomlashib bo'lgach, sinfda ijobiy muhit yaratish hamda o'quvchilarning bir-birlariga nisbatan iliq munosabatini shakllantirish uchun qisqa trening mashg'ulotini o'tkazadi.

O'quvchilar doira shaklida turib, bir-birlarining qo'lini ushlab oladilar. O'qituvchi doirani boshqaradi. Har bir o'quvchi yonidagi sinfdoshiga murojaat qilib, yaxshi tilak bildiradi. Masalan:

“Senga bugun yaxshi baholar olishingni tilayman”,

“Senga bugun omad tilayman” va hokazo.

Shu tarzda doira bo'ylab barcha o'quvchilar bir-birlariga ijobiy tilaklar bildiradilar. Bu mashg'ulot bolalarga dars oldidan yaxshi kayfiyat beradi hamda inklyuziv muhitni ijobiy shakllantirishga yordam beradi.

Salomlashuvdan so'ng davomat aniqlanadi, darsga tayyorgarlik ko'riladi. Darsga tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi differentsial yondashuvga muvofiq o'quvchilarni uch guruhga ajratadi:

1. O'quv materialini tez va mustaqil o'zlashtiruvchilar,
2. O'rtacha darajadagi o'quvchilar,
3. Qo'llab-quvvatlashga muhtoj o'quvchilar.

O'quvchilar bu taqsimotni sezmasdan, dars tabiiy muhitda, qiziqarli tarzda olib boriladi.

Asosiy qism

O'tilgan mavzuni takrorlash.

3-sinf darsligiga ko'ra, o'quvchilar “so'z turkumlari” haqida umumiy ma'lumotga ega. Shu sababli, “ot so'z turkumi” mavzusiga o'tishdan oldin savol-javob usuli orqali o'tgan mavzu esga olinadi.

Biroq bu savol-javob differentsial tarzda, ya'ni o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos holda tashkil etiladi. Har bir guruhga mos topshiriqlar tayyorlanadi:

- *1-guruh (kuchli o'quvchilar):* So'z turkumlari bo'yicha misollar keltirib, har birining grammatik belgisini izohlaydi.
- *2-guruh (o'rtacha darajadagilar):* Berilgan so'zlarni turkumlarga ajratadi.
- *3-guruh (qo'llab-quvvatlashga muhtoj o'quvchilar):* Rasmlar yoki so'z kartochkalari asosida so'zlarni tanib, ularni og'zaki tarzda aytadi.



Kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar	Topshiriq	Berilgan gapdan so'z turkumlarini ajratib ber. Masalan, Bahorda tabiat uyg'onadi, qushlar sayraydi, maysalar ko'm-ko'k bo'lib yerdan boshini ko'taradi. Ot- Sifat- Fe'l-
O'rta darjada o'zlashtiruvchi o'quvchilar	Topshiriq	Berilgan ro'yxatdan menga faqat narsalarning belgisini bildiruvchi so'zlarni ajratib ber. Masalan, gul, qizil, yuradi, maktab, ko'k, daftar, chiroyli.
Qo'llab-quvvatlashga muhtoj o'quvchilar	Topshiriq	Kartochkalarda ot, sifat, son, fe'l kabi so'z turkumlarini ifodalovchi so'zlar rasmlar yordamida beriladi. Masalan, ot- bog 'bon, qalam, daftar; sifat- qizil rang bo'yog'i; son- 3 soning yozuvdagi ifodasi kabi. Ular bulardan so'ralganini ajratib berishlari kerak. Masalan, o'qituvchi menga quyidagi rasmlardan shaxs va narsalarning nomini bildiruvchi so'zlar ifoda etganlarini ajratib ber kabi.

O'tilgan mavzu takrorlab olgach, o'qituvchi yangi mavzuni ko'rgazmali qurollar (rasmlar, plakatlar, slaydlar va boshqalar) yordamida tushuntirib beradi. Darslikda mavzuni tushuntirish uchun bir necha she'r va hikoyalardan foydalanilgan. O'qituvchi ushbu materiallardan hamda o'quvchilarning qiziqishidan kelib chiqib, yangi mavzuni interaktiv tarzda yoritadi.

Shuningdek, darslikdagi mashqlardan biri misolida mavzuni izohlab berish, so'zlar tarkibini tahlil qilish va ularning grammatik belgilarini aniqlash orqali o'quvchilarda mavzu bo'yicha dastlabki tushunchalar shakllantiriladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash

Mustahkamlash bosqichida o'quvchilarga ularning o'zlashtirish darajasiga mos differentsial topshiriqlar beriladi. Bu usul har bir o'quvchining individual imkoniyatini hisobga olgan holda faol ishtirokini ta'minlaydi.

1-guruh (Kuchli o'zlashtiruvchilar)

Mashq sharti: Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni o'qing va yozing. Qo'ygan so'zlaringiz tarkibida qanday qo'shimchalar borligini aniqlang.

- gullarni sug'ordi.
- bemorlarni davoladi.
- oralab ketdik.
- shaxmat o'yinida g'olib bo'ldi.
- paxtadan mo'l hosil yetishtirdi.
- Samarqand shahriga bordi.

(O'quvchilarga grammatik tahlil topshirig'i ham beriladi: ot, fe'l, qo'shimcha turlari.)

2-guruh (O'rta darjada o'zlashtiruvchilar)

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni ularning ma'nosi bilan moslab o'qing.

Ma'nosi	So'z
Bir qancha oila jam bo'lgan hudud	a) Mahalla
Bolalar o'ynaydigan joy	b) O'yin maydonchasi
Hamma birgalikda bajaradigan ish	d) Hashar
Ta'lim beradigan joy	e) Maktab

2-topshiriq. Quyidagi topishmoqlarni o'qing va ularning javoblaridan qaysilari ko'plik ma'nosini anglatishini aniqlang.

a)

Safda o'n ikki askar,
 Bo'y-u basti barobar.
 Yo'nsang yog'och po'stini,
 Rasmlarga rang berar.
 (Javob: qalamlar)

b)

Hech ham tinim bilmaydi,
Lek joyidan jilmaydi.
(Javob: soat)

3-guruh (Qo'llab-quvvatlashga muhtoj o'quvchilar)



Mashq sharti: Quyida berilgan rasmlarga so'roq bering.

Namuna:

- Bu kim? – Quruvchi.
- Bu nima? – G'isht.
- Bu kim? – Shifokor.
- Bu nima? – Kitob.

(O'qituvchi ushbu guruh bilan yakka tartibda ishlaydi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'roq gap tuzish va javob berish ko'nikmasini mustahkamlaydi.)

O'tilgan mavzu takrorlab olgach, o'qituvchi yangi mavzuni ko'rgazmali qurollar (rasmlar, plakatlar, slaydlar va boshqalar) yordamida tushuntirib beradi. Darslikda mavzuni tushuntirish uchun bir necha she'r va hikoyalardan foydalanilgan. O'qituvchi ushbu materiallardan hamda o'quvchilarning qiziqishidan kelib chiqib, yangi mavzuni interaktiv tarzda yoritadi.

Shuningdek, darslikdagi mashqlardan biri misolida mavzuni izohlab berish, so'zlar tarkibini tahlil qilish va ularning grammatik belgilarini aniqlash orqali o'quvchilarda mavzu bo'yicha dastlabki tushunchalar shakllantiriladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash

Mustahkamlash bosqichida o'quvchilarga ularning o'zlashtirish darajasiga mos differentsial topshiriqlar beriladi. Bu usul har bir o'quvchining individual imkoniyatini hisobga olgan holda faol ishtirokini ta'minlaydi.

1-guruh (Kuchli o'zlashtiruvchilar)

Mashq sharti: Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni o'qing va yozing. Qo'ygan so'zlaringiz tarkibida qanday qo'shimchalar borligini aniqlang.

1. gullarni sug'ordi.
2. bemorlarni davoladi.
3. oralab ketdik.
4. shaxmat o'yinida g'olib bo'ldi.
5. paxtadan mo'l hosil yetishtirdi.
6. Samarqand shahriga bordi.

(O'quvchilarga grammatik tahlil topshirig'i ham beriladi: ot, fe'l, qo'shimcha turlari.)

2-guruh (O'rta darajada o'zlashtiruvchilar)

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni ularning ma'nosi bilan moslab o'qing.

Ma'nosi	So'z
Bir qancha oila jam bo'lgan hudud	a) Mahalla
Bolalar o'ynaydigan joy	b) O'yin maydonchasi
Hamma birgalikda bajaradigan ish	d) Hashar
Ta'lim beradigan joy	e) Maktab

2-topshiriq. Quyidagi topishmoqlarni o'qing va ularning javoblaridan qaysilari ko'plik ma'nosini anglatishini aniqlang.

a)

Safda o'n ikki askar,
Bo'y-u basti barobar.
Yo'nsang yog'och po'stini,
Rasmlarga rang berar.
(Javob: qalamlar)



b)

Hech ham tinim bilmaydi,
 Lek joyidan jilmaydi.
 (Javob: soat)

3-guruh (Qo'llab-quvvatlashga muhtoj o'quvchilar)

Mashq sharti: Quyida berilgan rasmlarga so'roq bering.

Namuna:

- Bu kim? – Quruvchi.
- Bu nima? – G'isht.
- Bu kim? – Shifokor.
- Bu nima? – Kitob.

(O'qituvchi ushbu guruh bilan yakka tartibda ishlaydi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'roq gap tuzish va javob berish ko'nikmasini mustahkamlaydi.)

Yakuniy qism

O'qituvchi shu tartibda yangi mavzuni o'quvchilar bilan mustahkamlab olgach, ular bilan darslikda berilgan mashqlarni bajaradi. Darslikdagi mashqlarni bajarishda ham o'qituvchi topshiriqlarni o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirgan holda taqdim etishi yoki kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilarni qolgan o'quvchilar bilan aralash tarzda joylashtirib, hamkorlikda bajarishini tashkil etishi mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarda o'zaro yordam, muloqot va jamoaviylik ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'quvchilarni baholash

Bunday yondashuvdagi darsda o'quvchilarni baholashda har bir guruh uchun alohida maksimal baho va uning mezonlari belgilanadi. Masalan, kuchli o'zlashtiruvchilar guruhi uchun maksimal baho – 5, o'rta darajadagi o'quvchilar uchun – 4, qo'llab-quvvatlashga muhtoj o'quvchilar uchun esa – 3 bo'lishi mumkin.

Baholashda asosiy mezonlar quyidagilar:

- vazifani to'g'ri va tartibli bajarish,
- mustaqillik darajasi,
- topshiriqni bajarish tezligi,
- dars jarayonidagi faollik.

Biroq bu mezonlar qat'iy chegaralanmasligi lozim, chunki har bir o'quvchining individual o'sish dinamikasi doimo o'zgarib turadi. O'qituvchi baho qo'yishda o'quvchilarning darsdagi ishtiroki, odobi, o'zini tutishi, hamkorlikda ishlash qobiliyati kabi jihatlarni ham inobatga olishi zarur.

Shuningdek, baholash jarayonida rag'batlantiruvchi so'zlar ("Barakalla!", "Ajoyib ishlading!", "Zo'r fikr!" kabi) yoki ijobiy belgilar tushirilgan kartochkalar yordamida o'quvchilarni motivatsiyalash tavsiya etiladi.

Uyga vazifa va darsni yakunlash

Dars yakunida o'qituvchi mavzuga oid uyga vazifani beradi va o'quvchilar bilan umumiy xulosa qiladi. Masalan:

"Bugungi darsda biz ot so'z turkumi bilan tanishdik. Endi uyda darslikdagi 45-mashqni bajarib, otlarning qo'shimchalarini ajrating."

Shundan so'ng o'quvchilar bilan qisqa refleksiya o'tkaziladi – ulardan bugungi darsda nimalarni o'rganganliklari, qaysi mashq yoqqani haqida fikr so'raladi.


XULOSA VA TAKLIFLAR

Differentsial ta'lim yondashuvini inklyuziv ta'lim jarayonida qo'llash – alohida ta'lim ehtiyoji mavjud bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda ijtimoiy integratsiya, hamkorlik, mustaqil fikrlash va ijobiy o'zaro munosabatlarni rivojlantiradi.

Shuningdek, bu metod o'qituvchilarga darslarni mazmunli, samarali va individual yondashuvga asoslangan holda tashkil etish imkonini beradi. Natijada, ta'lim jarayonida har bir bola o'z qobiliyati darajasida muvaffaqiyatga erishish imkoniga ega bo'ladi.



(Kim?)
(Oshpaz)



(Nima?)
(Qalam)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kalbayeva.X.D. Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2023
2. Shomahmudova.R.Sh. "Maxsus va inklyuziv ta'lim". Uslubiy qo'llanma. "Chashma print". 2011
3. Shodmonova.S.M. Differensial ta'lim mazmuni va uning pedagogik imkoniyatlari. Science Shine International Scientific journal. Issue 12, Volume 1. 2024.
4. Qodirov.F.E., Fayzullayeva.D.H. "Ta'limda differensial yondashuvlar, talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish usullari". "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 9-13 bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.